

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

GRAMMATIK O'RGANISH METODLARI

**Abdusattorova Dildora
Muxtorova Shahzoda**

531/20 guruh talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tiliga o'rgatishda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan metodikalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: grammatika, ko'nikma, gap tarkibi, mashg'ulot, gap turlari.

Аннотация : В этой статье рассуждают методики, применяемые при формировании грамматических навыков английского языка у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: грамматика, навыки, структура речи, обучение, виды предложений

Annotation : In this article discussed the methods which are used in the formation of grammatical skills in preschool children, while teaching English language.

Key words: grammar, skills, speech structure, learning, types of sentences.

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois chet tili o'qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash ta'limdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Zero, 2012 yil 10 dekabrda e'lon qilingan " Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaror chet tili ta'limini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash kabi ezgu maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan

alohida ahamiyat kasb etadi. Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 29 декабрдаги 2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga asosan asosiy etibor maktabgacha ta'limni rivojlantirish, ta'lim-tarbiyaga innovatsion texnologilarni jalb etish, maktabgacha ta'lim tizimini har tomonlama isloh qilishga qaratilgandir.

Bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish, o'sib kelayotgan yosh avlodning chet tillariga qiziqishini yanada oshirish va o'z navbatida, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ko'zda tutilgan¹. Tilning Grammatik tuzumini bola predmetli harakatlarni o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanishi asosida egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bola Grammatik tuzumini shakllantirish morfologiya, so'z hosil qilish sintaksis (oddiy va qo'shma) gaplarni tuzish ustidagi ishlarni o'z ichiga oladi.

Muhimi bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to'g'ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalar gapda so'zlarning biriktirishni turli usullarini so'zlar o'rtasidagi ayrim mazmunli va Grammatik bog'liqliklardan foydalanishda hamda gapni intonatsion jihatdan rivojlantirishni o'rgatish kerak. Gap biror voqea hodisa haqidagi habarni so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gap so'z birikmasi tushuncha gap esa fikr ifodalaydi. Grammatik asosda gapning fikriy mundarijasi ifodalanadi. Har bir gap biror maqsad-mazmunni ifodalaydi. Og'zaki nutqda ana shu mazmunni mos keladigan tugal ohang bo'lardi.

Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar darak gaplar, so'roq gaplar, buyruq gaplar, istak gaplarga bo'linadi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalarga ikkita tildagi gaplarning o'zaro farqlarini bilishi yoki taqqoslashi ularning

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: - 2008. B-7.

farqlarini bir biri bilan taqqoslab og'zaki nutqda o'rganishni o'zlarining oldilariga maqsad qilib olishlari lozim. Darak gaplar o'zbek tilida quyidagicha strukturaga ega bo'ladi:

Ega +ikkinchi darajali bo'lak+fe'l

Masalan: 1. Men kitob o'qiyapman.

2. men tennis o'ynayapman

3. men maktabga borayapman

4. men kaptok o'ynashni yoqtiraman

So'roq gaplarda o'zbek tilida oxiriga so'roq ishorasi qo'yilishi orqali hosil qilinadi:

1. Siz kitob o'qiyapsizmi?

2. Sen maktabga boryapsanmi?

3. Kecha siz kitob o'qidingizmi?

4. Sen kitob o'qishni yoqtirasanmi?

His hayajon bilan aytiladigan gaplar istak yoki undov gaplar deyiladi.

1. Urta bugun qo'g'irchoq olgani do'konga boramiz!

2. O'zbekiston naqadar chiroyli yurt!

3. Bugun oyijonim menga uxlashimdan oldin ertak aytib bersa edi!

Ingliz tilida gapning qurilishiga ko'ra darak gaplar,so'roq gaplar,inkor gaplarga bo'linadi. Darak gaplar

Subject+ am, is, are+verbing

For example:

1. I am reading book

2. I am playing tennis
3. I like playing a ball
4. I am going to school

So'roq gaplarda yordamchi fe'l yoki mustaqil fe'l oldinga chiqishi bilan yasaladi

Am, is, are+subject+verb

For example:

1. Am I reading book?
2. Am I playing tennis?
3. Do you like a boll?
5. Am I going to school?

Ingliz tilida inkor gaplarni yasash uchun yordamchi fe'lga not inkor gaplar yasaladi.

Subject+am, is, are+not+verb yoki subject+do not+verb

For example:

1. I am not reading a book
2. I am not playing tennis.
3. I do not like playing a boll
4. I am not going to school

Ingliz tilida bolalarga ya'ni maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalar qisqa sodd gaplarni o'zlari bemaolol ayta olishi o'zining o'rtoqlari bilan suxbatlasha oladigan bo'ladi. Sodda gaplarni tuza oladigan bo'lishi lozim. Gap tarkibidagi so'zlarni so'z birikmalarini va qo'shimchalarni to'g'ri joyida qo'llay olishni o'rganishi lozim bo'ladi.

Soʻz predmetlar jarayonlar xususiyatlarini nomlash uchun muhim feʼl birligi hisoblanadi. Son ustida ishlash nutqni rivojlantirish nutqning tovush jihatini shakllantirishning zarur jihatidir.

Ona tilini lugʻat tarkibini egallash uning Grammatik tuzumini oʻzlashtirish ravon manologik nutqni rivojlantirish nutqning tovush jihatini shakllantirishning zarur shartidir. Soʻzning feʼl birligi sifatidagi ajralmas xususiyati uning mazmunidir. Insonda soʻzlarning turli maʼnolarini tushunish koʻplab yillar davomida rivojlanadi.

Tilni amalda oʻzlashtirish ona tilining barcha tovush birliklarini (tovush,boʻgʻin,ibora,matn) tinglab ajrata olish va ularni toʻgʻri talaffuz qilishni shakllantirish borasidagi ishlar muntazam ravishda olib borilishi lozim. Ohang tembr pauza urgʻulashning turli xillari tovush ifodaliligining muhim vositalari hisoblanadi. Bolaga intonatsiyadan toʻgʻri foydalanishni bildirayotgan fikrning nafaqat mazmuniy ahamiyatini balki emotsional xususiyatlarini ham bergan holda talaffuz tempi past balandligini toʻgʻri qoʻllash tovushlar soʻzlar iboralar gaplarni aniq talaffuz qilish qobiliyatini shakllantirish ishlarini olib borishi ham lozim.

Bolalarda nutqning intonatsion jihatga diqqat eʼtibor qaratishni tarbiyalar ekan katta yoshli odam uning nutqni tinglash qobiliyatini tembr(har bir tovushning oʻziga xos boʻlgan sifati) va vaznni his qilish tovush kuchini sezishni rivojlantiradi.Bu esa kelgusida musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishga ham taʼsir koʻrsatadi. Nutq intonatsiyasi tovushning ifodaviyligi ustidagi ishlar bolalarning bildirayotgan fikrga nisbatan matndan kelib chiqqan holda ovozini balandlatib yoki pasaytirib talaffuz qilayotgan matnga mantiqiy va emotsional urgʻu berish orqali soʻz munosabatini bildirishni oʻrganishlari uchun zarur. Buning uchun pedagog tegishli topshiriqlardan koʻproq foydalanishi lozim,aynan ana shu qobiliyatlar bolaga turlicha intonatsion ifodalashni talab qiluvchi turli xildagi ravon fikrlarni tuzish. Hikoya qilish tasvirlash mulohaza yuritish uchun zarur boʻladi.

Shunday qilib, grammatik mazmundagi mashqlar bolalarning tilga oid o'yinlarini ularning grammatik sohasidagi faoliyatini rag'batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so'z birikmasini o'ylab turish so'ngra gapda so'zlarni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini o'rgatishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Babaeva D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" darslik TDPU 2018 yil.
- 2.Qodirova F.R.Bolalarni chet tilga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. T.: "Sano-standart" 2009y.
- 3.Isoqov.U. Raximov. M., Sobirov.B. Inglizcha – o'zbekcha -lug'at. – T.: Yangi asr avlodi. 2010